

OSHIG`I OLCHI (pakka emas) O`YINCHILAR (yoxud milliy madaniyatda ta`lim – tarbiya xususida)

M.A. Shoalimov,
O`zDJTU kafedra mudiri
SH.N.Avlaqulov,
O`zDJTI tadqiqotchisi

Markaziy Osiyo va Qozog`iston hududlarida xalq milliy o`yinlari asosida ta`lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish yo`llari beqiyos ko`p bo`lgan. Ularning shakl va mazmunlari hozirgi davrda ham turli urf-odatlardagi ma`rakalarda maqsadli qo`llanilmoqda.

Bu jarayonlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi haqida atoqli olimlar U.Qoraboev, M.Murodov, T.Usmonxo`jaev, J.Toshpo`latov, T.Xoldarov (O`zbekiston), M.Tanikeev, B.M.Doskaraev, B.Janalin, A.Kunanbaev (Aby), D.Alimjanov, U.Jonibekov (qozog`iston) kabilar katta tadqiqotlar olib borib, ularning natijalarini dissertatsiyalar, qator o`quv qo`llanmalar, manografiyalar, ommabop ilmiy risolalarda atroflicha bayon etishgan.

Oshiq o`yinlari mazmun, shakl va mohiyat jihatdan o`ziga xos xususiyatlarga egadir. Ular orasida “Gardkam” turi qiziqarli va o`yinchiga moddiy ta`minot (yutuq), tomoshabinlarga esa zavq bag`ishlovchi turlardan biridir.

O`yinda bevosita qatnashchilarga chegara qo`yilmaydi. Shunday bo`lsa-da yirik o`yinlarda 3-4 nafar o`yinchilar ishtirok etib, o`zlarining mahoratini (omad) sinab ko`radi. Bu bir tomondan narda, karta va shu kabi hozirgi qimor o`yinlariga o`xshab ketadi.

O`yinchilar qadimda hilvat joydagi sandal, xontaxta, oddiy yerda (tekis) qimor tarzida (o`rtada mol, pul va hokazo) bahslashgan. Xilvat (pana) joylarda o`yinning o`tkazilishi eng avvalo yutuqni saqlash, qaroqchi va o`g`rilardan saqlanish bilan bog`langan.

O`yinning mazmunini qisqacha bayon qilish mumkin, ya`ni:

- o`yin ishtirokchisida kamida 3-4 ta oshiq bo`lishi (birinchi variant);
- o`yinchilar o`z oldiga 1 ta (ko`proq) oshiqni qo`yadi;
- davra o`rtasiga qo`lidagi oshiqlarni (3-4 va undan ko`p bo`lishi mumkin) havolatib-sachratib tashlash;
- oshiqlarning olchi tomoni (bir chetidagi qismdagi chuqur joyi) tik tursa o`rtaga qo`yilgan garovni yutuqni (oshiqlar) yig`ib olish;

Keyin navbatdagilar shu tariqa o`yinni davom ettiradi.

Oshiqni (qo`y yoki echkiniki) batafsil tasvirlashga hojat bo`lmasa kerak. Chunki ular deyarlik har bir oilada bolalar tomonidan yig`ilib, turli zamonaviy o`yinlarda undan foydalanadilar (uzoqdan otib tegizish, yaqindan chertib tegizish va hokazo). Lekin ko`pchilik kishilar oshiqning tomonlarini va qirralari nomini unchalik yaxshi bilishmaydi.

Ular olchi, tavka, chikka va pikka deb ataladi. Ya`ni olchi - oriqsimon tuzilishi, tavka uning orqasi - tekis, chikka - do`ng va pikka esa o`rtasi chuqur joylarni anglatadi.

Xalq og`zaki ijodi dostonlari, ayniqsa “Go`r o`g`li” turkumidagi dostonlarda askarlarning (lashkar) quvish, odamlarning yovdan qochishi (pikka), keksayu-yoshlarning yiqilib-surinib dumalashlarini (chikka-pikka) oshiq o`yinlaridagi faoliyatlar (nomlar) bilan atalganini o`qigan yoshlar to`la bilmasligi mumkin. Bu nomlarni izohlashning ahamiyati shundaki, dostonlarni o`qish va qishloq sharoitlarida keksalar bilan suhbat jarayonlarida voqyelikning asl va ko`chma ma`nolarini tushunishga yordam berishi mumkin.

O`yinining bu yo`nalishida (1-variant) g`olib chiqqanlar yig`ilgan oshiqlarni (yutuq: 50-60 va undan oshishi mumkin) boshqalarga sotib yoki biron zarur narsaga (yong`oq, bosh kiyim va hokazo) almashtirib, moddiy manfaat ko`rishgan.

Agar bu o`yin to`ylar, gashtaklar (gap) va boshqa ma`rifiy-madaniy ma`rakalarda (xursandchilik) tashkil etilsa, tomoshabinlarning diqqat-e`tiborini jalb etib, tomonlarning (o`yinchining tarafdorlari) xursandchiligi, zavqini oshirgan. Shu asosda o`yinchi va unga yaqin (tarafdor) bo`lganlarning jamoa (urug`-aymoq) obro`-izzatiga hissa qo`shganlar.

Oshiq (gardkam) o`yining ikkinchi yo`nalishi (variant) ancha murakkab va mohiyat jihatdan nozik bo`lgan. Bunda o`yinchilar ikki toifadagi yutuq (garov): oddiysi oshiqlar va nozik-murakkab tomoni katta boylik (tuya, ot, ko`p miqdorda qo`ylar, uy, hatto xotini yoki qizi) o`rtaga garovga qo`yilgan.

Ma`lumki oshiqni harqancha avaylab, ustalik bilan yerga tushirsa ham u doimo olchi turmaydi. Shu sababdan ba`zi kishilar oshiqning tavka (olchining teskari tomoni) tomonini tosh va egovlar bilan ishqalab tekislagan. Bu holat bir-ikki otishdayoq (tashlash) oshiqning olchi turishiga sabab bo`lib, yutuqlarni g`irromlik yo`li bilan olib ketaverishgan. Shu sababdan o`yin boshlig`i (vazir-hakam) oshiqni o`zi bilan olib kelib, barchaga baravar talabda (ishqalanib tekislanmagan) o`yinni o`tkazgan.

Shu orada bir chekinish qilishga to`g`ri keladi. Ya`ni yaqin o`tmishda u-bu sabablar bilan puldorlar va qimorbozlar yashirin ravishda oshiq o`yini bilan shug`ullangan.

Ular bu eski oshiq o`yiniga yangi talab va qoidalarni qo`shib turli g`irromliklar bilan yutuq egalari bo`lishgan.

Masalan Oshiqni kavlab ichiga qo`rg`oshin quyganlar yoki kichik temir parchasini (mix) qoqib, ustini bilinmas darajada berkitgan. Ayrimlar o`yin o`z uyida bo`lganda stol (xontaxta) tagiga magnit parchasini yopishtirib qo`ygan. Bunda oshiq qay darajada tashlanmasin uning tavka (teskari) tomoni yerga qarab, olchi tomoni yuzada (yuqori) bo`lgan. Shu tariqa yutuqlarni qo`lga kiritish imkoniyatiga ega bo`lganlar. qing`ir ishning qiyig`i qiriq yukdan keyin ham chiqadi, degandek bu g`irromlik usullar fosh bo`lib, bunday o`yinchilar avvalo davradagilarning tegishli jazolariga duch kelganlar. qaysi birlari esa davlat qonunlari asosida o`z jazolarini olishgan.

“Gardkam” o`yiniga qaytsak buning qiziqarli tomonlari ham yo`q emas. “Gardkam” iborasi “boshladim” (oshiqni o`yinga tashladim) degani bo`lsa kerak. Chunki o`yinchi oshiqni yerga otib (boshlab) qo`li bilan ko`kragiga zarb bilan urib, “Gardkam” deb ovoz chiqaradi. Agar oshiq olchi tursa garovga qo`yilgan

oshiqlarning barchasini o`ziga yig`ib oladi. Olchi turmasa navbatdagi kishi o`yinni davom ettiradi.

O`yinda bor oshiqlarini yutqazib qo`ygan kishi o`yindan shunchaki chetlashtirilmaydi. Balki vazirning buyrug`i bilan “jallod” (qatnashchilardan biri yoki tomoshabin) unga buyurilgan miqdorda (3 yoki ko`proq) darra (qamchi, tugulgan arqon va h.k) uradi.

Darra urush miqdorini vazir podshodan (to`y egalaridan biri yoki o`yin tashkilotchisi) so`raydi. Podsho esa odamlardan (o`yinchi yoki tomoshabin) qanday jazolash kerakligini so`rab ko`radi. Bu adolat va xalqparvarlikning belgisi hisoblangan. So`ralganlardan biri qasd olish maqsadida jazoni kuchaytirish (urish miqdori) zarurligini o`rinsiz taklif qilsa, uni ham jazoga tortgan. Shuningdek o`yin ishtirokchilari va tomoshabinlar tomonidan nojo`ya harakatlar bo`lsa, shaxsiga tegishli so`zlar aytilsa, ularni ham jazolash amalga oshirilgan.

Oshiq o`yining mazmunidagi qiyosiy o`xshatishlar (podsho, vazir, jallod, va aybdor va h.k) o`yinlarning tartibli o`tishini ta`minlash bilan birgalikda, ishtirokchilar va tomoshabinlarning bir-biriga bo`lgan yaxshi munosabatlari-ni tarbiyalash, har qanday muhim va sharoitlarda ham o`zini tutabilish, qat`iy iroda egasi bo`lishga yo`llaganligi ma`lum. Ta`kidlash mumkinki, bu o`yinning g`oyasi va qisman bo`lsada mazmun va shakllari hozirgi davrdagi juda ko`p yopiq (nolegal) va ochiq (legal) o`yinlarning, ayniqsa “Pole chudes” (Rossiya), “Intellectual jang” va boshqa (O`zbekiston) shakllanishiga asos solgan bo`lishi mumkin.

Shu sababdan kichik yoshdagi bolalardan tortib to o`smirlar, yigitlar va katta yoshdagi kishilar o`rtasida ta`lim-tarbiya doirasidan chiqmagan holda oshiqni olchi turg`azish va unga tegishli rag`batlantirish buyumlarini yutuq sifatida hadya qilish bilan turli xil (variant) o`yinlarni o`rganish, tashkil qilish mumkin. Bu o`z navbatida noan`anaviy vositalardan foydalanish, an`anaga aylanmagan o`yinlarni qo`llash va hatto yangi o`yinlarni ixtiro qilish kabi pedagogik texnologiyalar bilan bog`lanishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar maqolaning mavzusini izohlab berishga qaratildi.

Xalq orasida uddaburon, tadbirkor, ishbilarmon, boyliklarga ega bo`lish yo`llarini bilganlarni “oshig`i olchi” deb atash odatlari mavjud, kurashlar, poyga, ko`pkari-uloq o`yinlarida g`olib chiqib, o`zini “o`nglab” olgan polvon hamda chavandozlarni ham “oshig`i olchi” deyishlar davom etmoqda.

Oshiq va uning amaldagi mazmun hamda qo`llanilish usullari (o`yin) haqida hechqanday tasavvuri bo`lmagan ba`zi bir kishilar (asosan qishloq, sharoitlari yoki qishloq hayotini yaxshi bilgan amaldorlar, ziyolilar va h.k) ham o`zaro munosabatlarda kimlarnidir maqtab yoki kinoya sifatida “oshig`i olchi” deyish odatlar ham yuz berib turadi.

Bu bilan demoqchimizki “oshig`i olchi” naqlini sport sohasida ham ishlatish, shu sohadagi mutaxassislar, yosh va katta sportchilar orasida qo`llash bilan xalq milliy o`yinlariga ko`proq e`tibor berishga diqqatni jalb etish lozim.

Andijonlik M.Abdullaev Olimpiya o`yinida (Sidney, Avstraliya) boks bo`yicha g`oliblikni egallab, oltin medalga sazovor bo`lganida ulug` adib, uning hamshahri Said Ahmad matbuotda rasman “Yashavor yigit!” (molodets) deb xitob qilgan edi.

Respublika va Xalqaro sport musobaqalaridan shoda-shoda medallar olib kelayotgan sportchi bolalar va yoshlarga ularning yaqinlari va murabbiylari “oshig`ing olchi!” deb maqtasa arziydi.

Xalq milliy o`yinlari (XMO`) haqida birnecha so`z. Xalq milliy o`yinlarining asosi bo`lgan milliy kurashlarimiz, ot o`yinlari (poyga, ko`pkari-uloq, otni to`siqlardan sakratish, otni raqsga tushirish va h.k) jahon sportiga aylanib, milliy g`urur va iftixorimiz, shon-shuhratimizga katta hissa qo`shganligi e`tiborga molikdir.

Xalq milliy o`yinlari tarkibida milliy harakatli o`yinlarning (MIHO`) o`ziga xos o`rni va ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy harakatli o`yinlar (umumiy harakatli o`yinlar bundan mustasno) taniqli mutaxassis olimlar T.S.Usmonxo`jaev, III.A.Meliev, F.X. Xo`jaev, O.O.Po`latov kabilar tomonidan ishlab chiqilgan va nashrdan chiqqan to`plamlar, o`quv qo`llanmalar olqishga sazovordir. Ammo M.Murodov, U.qoraboev, E.Jabborov kabi madaniyat arboblari tomonidan tilga olingan (1921-1956) juda ko`p milliy harakatli o`yinlar haligacha chuqur o`rganilganicha yo`q.

Bizning nazarimizda bunga ba`zi bir sabablar to`siqlik qilmoqda, ya`ni:

- Respublika xalq milliy o`yinlari musobaqalariga e`tiborning susayishi;
- oila, bog`cha, mahalla va barcha tur hamda toifadagi o`quv muassalarida xalq milliy o`yinlari bilan kam shug`ullanish;

- eng qiziqarli va ta`lim-tarbiya jihatdan zarur bo`lgan milliy harakatli o`yinlari bo`yicha namunaviy kichik hajmdagi ommabop risolalarning yo`qligi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o`rta maxsus (pedagog va sport kollejlari) va oliy o`quv yurtlarida kadrlar tayyorlashda ma`naviy-ma`rifiy madaniyat va xalq milliy o`yinlari bo`yicha yetarli darajada ta`lim-tarbiya berilmasligi;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy-amaliy malaka oshirish institutlari, fakultetlari va seminar-kengashlarida xalq milliy o`yinlari va milliy harakatli o`yinlar to`g`risida keng va chuqur tushunchalar berilmasligi;

- mutasaddi idoralar va jamoat tashkilotlari tomonidan xalq milliy o`yinlari va milliy harakatli o`yinlar sohasidagi fakultetlarning nazoratdan chetda qolishi va h.k

Kuzatishlar, suhbatlarning natijalariga tayanishsa, ba`zi bir muammolarning yechimini topish yo`llari haqida takliflarni tavsiya etishga to`g`ri keladi.

Jahon urushidan oldingi va undan keyingi yillar davrida bolalar va o`smirlarning qadimiy harakatli o`yinlar bilan mashg`ul bo`lganliklarini kuzatib, ularda o`zimiz ham bevosita ishtirok etganmiz. Ularning hozirgi kunda ham mazmun va mohiyatlari e`tiborga loyiqdir.

To`plar bo`lmaganligi uchun do`ppi, telpakni (toqiya) qator qilib terib, navbatma-navbat tepib “kim uzoqqa yetkazadi” musobaqasi bo`lardi. Kimniki eng yaqin masofada qolib ketsa, uni barcha o`yinchilar birgalashib-talashib tepar edi. Do`ppining egasi unga yetib olmaguncha (o`zi egallashi) o`yin davom etar edi.

Bu o`yinni (“Toqiya-telpak”) qishloq joylarida davom ettirish maqsadga muvofiq keladi. Chunki hozirgi taqchillik sharoitda qishloqlarda to`p katta muammo ekanligini hechkim inkor etmasa kerak.

Bu o`yinda endi do`ppi (toqiya) yoki telpak emas, oddiy eski teri yoki qattiqroq-chidamli mato (brezent) larni tugib, tikib to`p shaklida yasash oson, qolaversa

moddiy xarajatlar bo'lmaydi. Buni tashkil qilib, miriqib o'ynagan bolalarning (qizlar ham) "oshig'i olchi" bo'ladi.

qishloq sharoitlariga mos keladigan "chillik", "poda to'p" (podachi-cho'pon), "oq suyak", "poloxmon", "shoxmon" kabi bir qator milliy harakatli o'yinlarni o'ynash, vaqt va e'tiborni ajratish zarurdir. Bu o'yinlarning mazmunida jismoniy sifatlarni tayyorlovchi omillar istalgandan ham yuqori turadi.

Xulosa shundan iboratki, Barkamol avlod Davlat dasturida ko'zlangan maqsad va vazifalar xalq milliy o'yinlari va milliy harakatli o'yinlar mazmunida mavjuddir. Ularni milliy qadriyatlar tarkibidagi ma'naviy-ma'rifiy boylik sifatida baholash, sharoitlar, o'quvchi-yoshlarning istak-xohishlariga qarab qiziqarli ravishda tashkil qilishga to'g'ri keladi. E'tirof etish joizki ta'lim-tarbiya jarayoni faqat kasb-hunarga yo'llash, shu asosda mutaxassislar tayyorlash bilan chegaralanmaydi. Bunda yoshlar va bo'lajak mutaxassislarning jismoniy barkamolligi ham asosiy o'rinda turadi. Uning muhim omillari va amalga oshirish yo'llarida xalq milliy o'yinlari va milliy harakatli o'yinlar o'ziga mos ravishda mazmun hamda mohiyat jihatdan e'tiborga loyiqdir.